

---

# HUDUDLARDA “AYOLLAR DAFTARI”NING 5-BOSQICHI UCHUN XATLOV JARAYONLARI BOSHLANDI



## Hududlarda “Ayollar daftari”ning 5-bosqichi uchun xatlov jarayonlari boshlandi

Ayni kunda respublikamiz bo'ylab “Ayollar daftarini” yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida xatlov jarayonlari bo'lib o'tmoqda. Mazkur tartib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2023 yil kungi “Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bilan tasdiqlangan Nizomga asosan amalga oshiriladi.

Tuman hokimligi majlislar zalida bo'lib o'tgan Vasiylik Kengashining tadbirida mazkur jarayon va uning tartib-tamoyillari yuzasidan tushuntirishlar berildi. Kun tartibidagi asosiy masala “Ayollar daftarining” 5-bosqichi jarayonida foydalaniladigan anketa-so'rovnomalar chop etish va ko'paytirish xarajatlarini moliyalashtirishdan iborat edi.

Shuningdek mazkur jarayonda ishtirok etuvchi mas'ul xodimlarga “Ayollar daftarining” 5-bosqichi jarayonida xaqqoniylik va shaffoflikka amal qilish borasida ko'rsatma va topshiriqlar berildi. Tadbirda ishtirok etgan mahallalar xotin-qizlar faollari o'zlarini qiziqtirgan savollariga javoblar oldilar.

**So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-01-10 10:17:35